

# Shavkat Mirziyoyev: O'zbekiston va Qozog'iston – tabiiy iqtisodiy hamkorlar



6 dekabr kuni Oqo'rda qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Qozog'iston davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Qasim-Jomart Toqayev faxoriy qorovul oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini bir-biriga tanishtirdilar.

So'ng davlat rahbarlarining tor doiradagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Samimiyat va ishonch ruhida o'tgan uchrashuvda yetakchilar ko'p qirrali O'zbekiston-Qozog'iston sherikligiga doir keng ko'lamli masalalarni, shu jumladan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni ko'rib chiqdilar, xalqaro va mintaqqa kun tartibi yuzasidan fikr almashdilar.

Qozog'iston Prezidenti davlatimiz rahbarini tashrifi bilan qutlab, Prezident saylovida ishonchli g'alaba qozongani bilan yana bir bor tabrikaldi va kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi, ushbu uchrashuvning muhim ahamiyatini alohida qayd etdi.

- Siz Qozog'istonga davlat tashrifi bilan kelganingizdan juda mamnummiz. Hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishda ushbu voqeа juda muhim. Bugun imzolanadigan hujjatlar to'plami sherikligimizga qo'shimcha sur'at bag'ishlaydi. Mamlakatlarimiz hukumatlariga barcha sa'y-harakatlarni qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratish topshirig'ini berishga kelishib oldik. O'ylaymizki, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning jiddiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz taklif uchun minnatdorlik bildirib, ushbu uchrashuv Qozog'iston mustaqilligining 30 yilligi arafasida o'tayotganini ta'kidladi hamda O'zbekiston xalqi nomidan birodar qozoq xalqini ushbu qutlug' sana bilan samimiy tabrikaldi, tinchlik-osoyishtalik, ravnaq va yangi zafarlar tiladi.

Bugungi kunda Qosim-Jomart Toqayev rahbarligida Qozog'iston Birinchi Prezident - Elboshi Nursulton

Nazarboyev boshlagan katta bunyodkorlik ishlarini davom ettirayotgani va barqaror taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgani ta'kidlandi.

O'zbekiston yetakchisi ikki birodar davlat o'rtaisdagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining rivojlanish sur'atini mammuniyat bilan qayd etdi.

- Keyingi yillarda hamkorligimizni mutlaqo yangidan tashkil etdik va bugun qo'shma sa'y-harakatlarimiz o'zining ilk salmoqli natijalarini berayotganini guvohi bo'lib turibmiz.

O'zbekiston va Qozog'iston - tabiiy iqtisodiy hamkorlar. Iqtisodiyotlarimiz raqobat qilmaydi, bir-birini to'ldirib turadi.

O'zaro savdo ortmoqda. Joriy yilda tovar ayirboshlash rekord daraja - 4 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Avtomobilda va temir yo'llari orqali yuk tashish hajmlari oshmoqda. Aviaqatnovlar to'liq qayta tiklandi, yangi yo'nalishlar ochilmoqda.

Yetakchi korxonalarimiz kooperatsiyani muvaffaqiyatli kengaytirmoqda. Keyingi yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida qo'shma korxona va loyihalar soni 6 barobarga oshdi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik rivojlanib borayotgani, bunda mamlakatlarimiz hududlari va tadbirkorlari o'rtaisdagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar muhim o'rin tutayotgani alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston Prezidentining tashrifi arafasida Turkiston shahrida Bosh vazirlar raisligida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va Hududlar forumi o'tdi. Kuni kecha Qozog'iston poytaxtida qo'shma biznes-forum muvaffaqiyatlari o'tkazildi. Ushu tadbirlar natijasida jami 6 milliard dollarlik kelishuv va shartnomalar imzolandi. Keyingi yillarda qo'shma korxonalar soni 6 barobarga oshdi. Kostanayda avtomobil, avtobus va qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Turkiston va Chimkentda zamonaviy to'qimachilik va maishiy texnik korxonalarini ishga tushirildi. O'zbekistonda qozog'istonlik hamkorlar bilan birgalikda energetika, sanoat, kimyo, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish sohasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Pandemiya davrida birodar xalqlarimiz bir-biriga yordam berib keldilar.

Gumanitar sohadagi hamkorlik faol rivojlanmoqda. Qayta tiklangan Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida Qozoq kinosi kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Shu hafta Qozog'iston poytaxtida O'zbek kinosi kunlari bo'lib o'tadi.


Mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlari o'z samarasini ko'rsatdi. Ochiq va ishonchli muloqot uchun noyob maydon shakllandi.

O'zbekiston va Qozog'iston BMT, MDH, SHHT, IHT, Turkiy tilli davlatlar tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

- Bugun ikki tomonlama strategik sherikligimizni ittifoqchilik munosabatlari darajasiga ko'tarish to'g'risida tarixiy qaror qabul qilamiz. Bu nafaqat mamlakatlarimiz, balki butun mintaqaning izchil taraqqiyoti, barqarorligi va ravnaqi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'ladi, - dedi O'zbekiston Prezidenti.

Yetakchilar mintaqa va xalqaro kun tartibining tomonlarni qiziqtirgan dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Uchrashuvda davlat rahbarlari O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaisdagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash borasidagi intilishi qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.









Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



*Manba*